

ISAJON SULTON ASARLARINING HOZIRGI ADABIY JARAYONDAGI O'RNI VA "BOQIY DARBADAR" ASARI TAHLILI

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti 3-
bosqich talabasi

Maxmudova Sarvinozxon Muzaffar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sulton asarlarining hozirgi adabiy jarayondagi o'rni hamda "Boqiy darbadar" asari tahlili aks etgan.

Abstract: This article reflects the role of Isajon Sultan's works in the current literary process and an analysis of the work "The Eternal Wanderer".

Kalit so'zlar: etikdo'z, Hazrat, bulut, sahro,

Keywords: cobbler, Hazrat, cloud, desert,

Isajon Sulton zamonaviy adabiyotning ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ijodkorlar sirasiga kiradi. Adibning men tanishib chiqqan "Boqiy darbadar" romani, "Qismat", "Turmush", "Oydinbuloq" nomli hikoyalari kitobxon e'tiborini o'ziga tortadi. Bu asarlarni diqqat bilan o'qib tushunmoq lozim. Asarlarda asosan hayot-tabiati tasviri, qahramonlar hayoti hamda ularning ichki kechinmalari yotadi. Bularni o'qish uchun biroz vaqt va e'tibor va diqqatni jamlashning o'zi yetarli.

"Boqiy darbadar" romani voqealari kitobxonni o'yga toldiradi. Roman hajman kichik ko'rinishiga qaramay, juda murakkab sujetni o'z ichiga oladi. Asarni o'qishni boshlaganimizdanoq uning murakkab ekanligini, asarda chuqur ma'no aks etganini bilishimiz mumkin. "Boqiy darbadar" 2010-yilning eng yaxshi asari deya e'tirof etilgan. Isajon Sulton asarlari o'ziga xos uslub, doim falsafiy, yetarlicha murakkab va o'ylashga undovchi mavzularga boydir." Bu roman biz o'qigan "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", romanlaridan farq qiladi. Bu asarlarning yoshi bir asrdan oshdi, yillar o'tib roman shu ko'rinishga keldi. Biz o'qigan yuqoridagi romalar personajlarga oyligi voqealarning ixchamligi bilan ajraib turadi. Turli davrlarda turli romanning urlich ko'rinishlari vujudga kelyapti. Biz roman o'qishni ilk bor boshlaganimizda

avval “O’tkan kunlar” romanini o’qib keyin birdaniga shu paytgacha yaratilib kelingan romanlarni o’qimay zamonaviy uslubda yaratilgan “Boqiy darabadar” romanini o’qiydigan bo’lsak, biz roman haqidagi savollarga javob topa olmay qolamiz. Shuning uchun kitobxon har bir davrda yaratilgan romanlarni diqqat bilan kuzatib o’qishi zarur. Asarni o’qish davomida voqealarni anglashimiz zarur.

Avvalo asar nomiga to’xtalsak, “Boqiy darabadar” nega bunday nomlangan? Nega boqiy umrbod darabadar bo’lishga mahkum bu inson? Kabi savollar o’quvchiga tinchlik bermaydi. Biz bu savollarga romanni tahlil qilish jarayonida yechim topamiz.

Asardagi bir gapni olib qarasak ham uning negizida olam-olam ma’no bor. Misol uchun, “Boqiy darabadar” asarining boshidagi ilk satrda shu parcha keltiriladi: “Jaziraning top-tozza moviy osmonida bir parcha oq bulut suzmoqda edi. Bu satrlarga yaxshilab e’tibor brib qaralsa, jazirama issiqda bulut parchasining paydo bo’lishi naqadar g’ayritabiiy holat. Lekin bu asarda nega jazirama issiqda oq bulut parchasi suzib yuribdi. Bulut o’zi nimaning ramzi? Bu savolga javob berish uchun 5-sinf adabiyotidagi Mirtemirning “Bulut” she’riga yuzlanamiz. She’rda bulut qut-baraka ramzi ekanligi aytilgan. Ana endi asardagi bulutga to’xtaladigan bo’lsak, asarda tasvirlanishicha, bu jaziramadagi bulut bir mahkumning boshida barq urib turibdi, u qayerga borsa uni soya qilib yuribdi. Bu voqea menga bir asarni eslatdi. Ahmad Lutfiy Qozonchining “Saodat asri” qissalari nomli 1-kitobida ayni shu voqea tasvirlangan. Bilamizki, bu asar payg’ambarimiz Muhammad(s.a.v) hayotlari va yashagan davrlari haqida. Bu asarda ham bulut parchasi uchraydi xuddi “Boqiy darabadar” asarida aks etgani kabi. “Saodat asri qissalari” kitobida sahrodagi qoq jazirama issiqdagi bu bulut Muhammad(s.a.v) ga soya kabi ergashib, ular qayerga borsa doim boshi ustida barq urib turgan va hatto yahudiylar ham bu bulut mo’jizakorligini anglab so’nggi payg’ambar Muhammad(s.a.v)dunyoga kelganlarini sahrodagi karvon odamlari ichida borligini anglashgan. Bu asarni keltirib o’tganimning asosiy sababi “Boqiy darabadar” romanidagi bulut ostidagi mahkum ham aziz avliyo ekanligidan darak beradi. Bu ikki asar bir biriga shu qadar o’xshashki, kitobxonni fikrlashga undaydi. Asarda bir etikdo’z Iso alayhissalomga qo’l ko’tardi-yu, abadiy yashash degan tavqi la’natga duchor

bo'ldi. Yuqoridagi mahkunga aziz avliyo deb ta'rif bergandik aslida bu mahkum Iso payg'ambar bo'ladi. Boqiy, barhayot yashamoq ba'zida musibat bo'lishi naqadar achinarli holat. Ba'zi odamlar juda uzoq yashashni xohlaydi, ular bu dunyoga shunchalar muhabbat qo'yganlaridan bir kun kelib o'lishlari mumkinligini yodidan chiqaradi. Yashagisi sari yashagisi kelaveradi natijada faqat bu dunyo borligini o'ylab oxiratni unutadilar. Agar barhayotlik ularga katta falokat olib kelishi mumkinligini anglaganlarida edi barchalari qabristondan o'zlariga bir qabr kavlatib bu dunyodan tezroq ketishni istagan bo'lar edilar.

Asarda yana bir voqea aks etadi: "Etikdo'z bugun azonda kulbasining yonidagi daraxt shoxlarida qop-qora chumchuqlar to'planib olganini ko'rdi. Boshqa daraxtlarda chumchuqlar yo'q edi. Bular esa aynan uning loysuvoq uyining yoniga to'planishgan, na ovoz chiqarar, na don-dun terar, faqat sinchkov boqishar va nimanidir kutishardi." Ular etikdo'zning uyi yonida nimanidir kutayotgan edilar. Etikdo'zning xayoliga birdan Hazrat keladi. Hazrat bundan o'ttiz uch yil avval etikdo'zning kelajagini bashorat qilib, bu chumchuqlarga quyidagicha ta'rif bergan edi: "– Himm... Bugun juma, oyning o'n uchinchi... – nimanidir o'zicha hisob-kitob qildi Hazrat. So'ng bolaga achinib qarab turdi-da: – O'g'lim, gapimga diqqat bilan quloq sol, – dedi. – Oyning o'n uchinchi kunida, juma kuni uchib keladigan qora chumchuqlar aslida mudhish va qattol bir qarg'ishning yukini olib keladilar. Shu gapimni zinhor yodingdan chiqarma." Hazrat etikdo'zga achinib qarab tavba qilishini Allohning dargohi keng ekanini aytib bu dunyoda yolg'iz u darbadar emasligi hayoti davomida bir to'da sanoqsiz darbadar olomonni ko'rishini ular achinarli o'lim topishini, tarxida faqatgina uning ismi qolishini qolgan barcha odamlar yer yuzidan benom-u benishon yo'q bo'lib ketishini aytadi. Yaxshilab o'ylab qaralsa, yer yuzidan qachon odamlar butkul yo'q bo'lib ketadi faqatgina qiyomatda. Etikdo'zning birgina o'ylamay qilgan xatosi uni butun umr tark etmadi va umri xatosining badali bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, bu asarni o'qish davomida ham o'qib tugatgandan keyin ham biz o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olishimiz mumkin. "Boqiy darbadar" romanini zamonaviy uslubda yozilgan tarixiy asarlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isojon Sulton “Boqiy darbadar”

<https://kutubxona.samduuf.uz/download/4752>

2. Ahmad Lutfiy Qozonchi “Saodat asri qissalari”

<https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/10/NamDU-ARM-13233-%>